

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA'SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To'xtasinov Mira'zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o'g'li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI Hujjatlashtirish VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og'abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yuldashev Rustam Daniyrovich</i> YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	87-93
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L	94-98
<i>Berdikulova Surayyo Aslamovna</i> IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI	99-104
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI	105-113
<i>Yarbaev Xasan Xazratqulovich</i> JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL	114-118
<i>Maxsudjonov Kamronjon</i> MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI	119-123
<i>Qo'chqarov Oybek G'ulomovich</i> INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV	124-128
<i>Otaqulov Elyor Madiyrovich</i> EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI	129-136
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR	137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Niyazov Ravshan Turakulovich</i> SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI	142-148
<i>Yunusova Xilola Ravshan qizi</i> KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI "V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA	149-154
<i>Absalamova Gulmira Sharifovna</i> LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA	155-158
<i>Dadajanova Aziza Karimullayevna</i> THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE	159-170
<i>Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna</i> YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA	171-175
<i>Babajanova Iqbol Salomaddinovna</i> SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafruz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Ширин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i> INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

LOGICAL OPERATIONS ON CONCEPTS

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich

Candidate of Philosophical Sciences,
Associate Professor, Department of General Education and Culture,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article examines the place, role, and significance of logical operations on concepts within the process of thinking. It investigates the introduction of new concepts emerging from scientific advancements into practical usage through logical operations such as analysis, synthesis, comparison, and document analysis. A comprehensive methodological approach has been applied to the topic.

The study attempts to highlight the importance of logical operations involving concepts—such as conceptual division, definition, generalization, and delimitation—in professional activities. The mechanisms and tendencies of logical operations on concepts, as well as their impact on the development of logical thinking skills, are analyzed.

Keywords: concept, division, dichotomy, classification, definition, nominal, real, genetic, tautology, generalization, delimitation.

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich

Falsafa fanlari nomzodi,
TDYU “Umumta’lim fanlar va madaniyat” kafedrası dotsenti
Email: r.mamatqulov76@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tushuncha ustida mantiqiy amallarning fikrlash jarayonida tutgan o’rni, roli va ahamiyati o’rganilgan. Fan yutuqlari asosida kirib kelayotgan yangi tushunchalarning mantiqiy amallar asosida iste’molga kiritish masalasi analiz, sintez, taqqoslash va hujjatlarni tahlil qilish metodlari orqali o’rganilgan. Ushbu mavzuga kompleks metodologik nuqtai nazardan yondashilgan. Maqolada tushuncha ustida olib boriladigan mantiqiy amallar, tushunchalarni bo’lish, tushunchalarni ta’riflash, tushunchalarini umumlashtirish va chegaralashning kasb faoliyatidagi o’rni yoritib berishga harakat qilingan. Tushuncha ustida olib boriladigan mantiqiy amallar mexanizmi va tendensiyalarning mantiqiy fikrlash ko’nikmasini shakllantirish ta’sir doirasi o’rganilgan.

Kalit so’zlar: tushuncha, bo’lish, dixotomik, klassifikatsiya, ta’riflash, nominal, real, genetik, tautologiya, umumlashtirish, chegaralash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N21>

Hozirgi kunda jamiyatni demokratlashtirish va huquqiy madaniyatni yanada takomillashtirish sohasidagi o’zgarishlar yuridik ta’limga bo’lgan munosabatni sifat jihatidan yuqori bosqichga ko’tarishni talab qilmoqda. [1] Yuridik ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri mantiqiy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Tushuncha ustida mantiqiy amallarni olib borish, yuristlar kasb faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda qo’lga kiritilayotgan yutuqlar asnosida kirib kelayotgan yangi tushunchalar o’z vaqtida mantiqiy tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan huquqiy munosabatlarga ham kirib kelayotgan yangi tushunchalar ustida mantiqiy

amallarni olib borib, o'z vaqtida amaliyotga joriy qilish masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblanmoqda. [2]

Tushuncha ustida mantiqiy amallarni olib borish, yuristlar kasb faoliyatida axborot olish va yetkazish, bilimlarni bir tizimga solish, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, asosli xulosa chiqarish va o'z nuqtai nazarini argumentlashga yordam beradi. Shu birga birga huquqiy normalarni analiz va sintez qilish, nizoli holatlarga huquqiy yechim berish yuzasidan ma'lum bir pozitsiyaga ega bo'lish va qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. [3] Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tushuncha ustida mantiqiy amallar mavzusini tahlil qilib chiqsak.

Tushuncha dastlabki tafakkur shakli hisoblanadi.

Tushuncha – predmetning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Tushuncha ustida mantiqiy amallar asosan to'rtta yo'nalishda olib boriladi:

1. Tushunchani ta'riflash.
2. Tushunchani bo'lish.
3. Tushunchani chegaralash.
4. Tushunchani umumlashtirish.

Tushunchani ta'riflash – tushunchaning mazmun mohiyatini ochib beruvchi mantiqiy amaldir. Ushbu amal qonun loyihasi ishlab chiqishda, qonunlar qabul qilishda har bir tushunchaning o'z o'rnida ishlatilishi va qonunlarning yashovchanligini ta'minlab beradi. Shu nuqtai nazardan kelib tushunchani ta'riflash mexanizmini tahlil qilish lozim bo'ladi. [4]

Ta'riflash (rus tilida, delit), (grekcha, xoros, chegara ustuni) va (lotincha definitio, chegara) degan ma'nolarni anglatadi.

Ta'riflash tuzilishi:

1. Aniqlanuvchi qism (definiyedum).
2. Aniqllovchi qism. (definiyens).

Aniqlanuvchi qism – mazmuni ochib beruvchi tushuncha.

Aniqllovchi qism – aniqlanuvchining mazmunini ochib beruvchi tushuncha hisoblanadi.[5]

Tushunchani ta'riflash quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta'riflanuvchi predmetning mohiyati, uning muhim belgilarini ochib beradi.
2. Ta'riflanuvchi tushunchaning o'ziga yaqin tushunchalardan farq qilishini ko'rsatadi.
3. Tushunchani ifoda qiluvchi so'zning ma'nosini ochib beradi.

Yuqoridagi vazifalardan qay biri hal qilinishiga qarab:

1. Nominal ta'rif.
2. Real ta'rif.
3. Genetik ta'rifga bo'linadi.

Nominal ta'rif – tushunchani ifodalagan so'z, nom va terminning ma'nosini bayon etishdan iborat.

Real ta'rif – predmetning muhim belgilarini aniqlashdir.

Yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'rifning eng ko'p ishlatiladigan turi bo'lib, u ikkita bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi va shu asnoda uning mazmuni qisman ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning shu jinsga kiruvchi boshqa tur tushunchalardan farqi aniqlanadi. [6] Uning tur belgisi ko'rsatiladi. Shu tariqa mazkur tushunchaning qolgan qismi ochib beriladi.

Genetik ta'rif. Genetik ta'riflashda tushuncha ifodalangan predmetning kelib chiqishi, uning nimadan tuzilganligi ifodalanadi.

Ta'riflash qoidalari:

1. Ta'riflash teng hajmli bo'lishi kerak. Ya'ni ta'riflanuvchi tushunchaning hajmi ta'riflovchi tushuncha hajmi bilan teng bo'lishi kerak.

2. Ta'riflashda eng yaqin jins tushunchasi olinishi zarur.

3. Ta'rif inkor shaklida bo'lmasligi kerak. Chunki tushunchalarni ta'riflashda ularning muhim belgilari ko'rsatib beriladi. Predmet nimadan iborat va boshqa predmetlardan nimasi bilan farq qilishi fahmlanadi.

4. Ta'rifda tur belgisi faqat ta'riflanuvchi predmetga tegishli bo'lishi va uning barcha predmetlardan farqini ko'rsatib berishi kerak.

5. Ta'rifda qaytarish (aylanma xarakter) bo'lmasligi kerak, ya'ni ta'riflanuvchi tushuncha o'zi bilan emas, balki boshqa tushunchalar bilan aniqlanadi va uning mohiyatini ochib beriladi.

Tavtologiya shu qoidaning buzilishi natijasida paydo bo'ladi. Bunda aniqlanuvchi tushunchadan, uning mazmunini ochib berish uchun foydalanilgan bo'ladi.

6. Ta'riflash aniq va ravshan bo'lishi kerak. Tushunchani ikki mazmun mohiyatga ega bo'lishga yo'l qo'ymaslik lozim.

7. Ta'riflashda obrazli so'z va iboralar bo'lmasligi kerak.

Tushunchani mumkin bo'lmagan hollarda, ta'rifga o'xshash usullardan foydalaniladi. Bular ko'rsatish, tasvirlash, tavsiflash, o'xshatish va tafovutlashlardir.

Tushunchalarni bo'lish.

Tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlariga ajratish yo'li bilan aniqlashga bo'lish deyiladi. Bo'lish shunday bir mantiqiy amalki tushunchaning hajmiga kiruvchi elementlarni ma'lum bir belgilar asosida birlashtirishdir. [7]

Tushunchani bo'lish strukturasi (tuzilishi) :

1. Bo'linuvchi tushuncha. Ma'lum bir tushuncha hajmidan yangi bir tushunchani keltirib chiqarish zaruriyati.

2. Bo'lish asoslari. Ma'lum bir belgilar asosida bo'lish amalga oshiriladi.

3. Bo'lish a'zolari. Bo'lish natijasida vujudga keladigan tushunchalar.

Tushunchalarni bo'lishning asosiy xususiyati predmetlar to'g'risidagi bilimlarimiz konkretlashadi. Bo'lish amalida bo'linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanadi), bo'lish asosi (umumiy belgisi aniqlanadi), va bo'lish a'zolari (bo'lish natijasida hosil bo'ladigan tur tushunchalar) tashkil etadi.

Bo'lish usuli predmetlarning qismlarga ajratilishidan farqlanishi lozim. Avtomashinani qismlarga ajratish, kitobni boblarga ajratib o'rganish shular jumlasidandir.

Bo'lish qoidalari. Bo'lish to'g'ri bo'lish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

1. Bo'lish teng hajmli bo'lishi, ya'ni bo'linuvchi tushunchaning hajmi bo'linuvchi tushuncha hajmiga teng bo'lishi kerak.

2. Bo'lish bir asos bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Asos qilib olingan belgi bo'lish davomida boshqa belgi bilan almashtirilmasligi lozim.

3. Bo'lish a'zolari bir – birlarini istisno qilishi kerak.

4. Bo'lish izchil bo'lishi va unda sakrash bo'lmasligi lozim.

Tushunchalarni bo'lish ikkiga bo'linadi:

1. Dixotomik bo'lish (grekcha so'z bo'lib. ikkiga bo'lish degan ma'noni anglatadi).
2. Klassifikatsiya orqali bo'lish.

Dixotomik bo'lish. Bo'linuvchi tushunchani o'zaro zid bo'lgan tushunchaga bo'lishdan iborat. Dixotomik bo'lish ko'p hollarda predmetlarning ma'lum tomonini belgilaganda boshqa tomonlari noaniq bo'lganda, kontras tushunchalar hosil qilishda qo'llaniladi. [8]

Dixotomik bo'lishda hosil bo'lgan ikki zid tushunchaning biri noaniq bo'lganligi uchun ham u ko'p hollarda xatodan xoli bo'ladi.

Klassifikatsiya. Klassifikatsiya — predmetlarni bir-biriga o'xshashligi va farqiga qarab ma'lum guruhlar, turlar, sinflar bo'lishdir.

Klassifikatsiya natijalari har xil tablitsalar. Sxemalar. Kodekslar va shu kabilarda o'z aksini topadi. Ular bilishda va kundalik turmushda uzoq yillar davomida ishlatiladi. Mantiqda sun'iy va tabiiy klassifikatsiyalar farq qiladi.

Sun'iy klassifikatsiyada bo'lish amali predmetlarning birorta nomuhim belgisiga ko'ra amalga oshiriladi.

Tabiiy klassifikatsiyada bo'lish amali predmetlarning birorta muhim xususiyatiga ko'ra amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash. Bu amal tushunchalarni mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari miqdoriy nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash shunday bir mantiqiy amalki. unda hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga o'tiladi. Chegaralash amalini yakka tushuncha hosil bo'lguncha davom ettirilishi mumkin. [9]

Tushunchani chegaralash tuzilishi (strukturasi):

1. Birlamchi tushuncha (dastlabki).

Bunday tushuncha hajm jihatdan keng bo'ladi, belgilari umumiy xarakterga ega bo'ladi.

2. Chegaralash belgisi.

Tushunchani chegaralash amali orqali hosil bo'lgan yangi tushuncha.

3. Yangi tushuncha.

Chegaralash amali orqali hosil bo'lgan yangi tushuncha mazmun jihatdan keng bo'ladi (mazmun ortadi), hajm jihatidan tor bo'ladi.

Tushunchani chegaralash amali mantiqiy fikrlashda aniqlik va konkretlikni ta'minlab beradi.

Tushunchani umumlashtirish. Tushunchani umumlashtirish shunday mantiqiy amalki unda hajmi tor tushunchadan, hajmi keng tushunchaga fikran o'tiladi.

Tushunchani umumlashtirish tuzilishi (strukturasi):

1. Tushuncha hajmi.

Tushunchaning hajmini kengaytirish (predmetlar doirasini kengaytirish).

2. Tushuncha mazmuni.

Tushunchaning mazmunini toraytirish orqali, aniq va konkret bilimga ega bo'lish.

3. Bo'ysunish munosabati.

Tushunchani umumlashtirish bo'ysunish munosabatiga asoslanadi.

Tushunchani umumlashtirish obyektiv reallikdagi voqea va hodisalar to'g'risida umumiy mulohaza yuritishga yordam beradi.

Umumlashtirish amalining chegarasi kategoriyadir. Kategoriyalar predmet va hodisalarning umumiy xususiyatlarini, aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy

tushunchalardir. Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalar asosida bugungi kunda iste'molga kirib kelayotgan yangi tushunchalar yuzasidan quyidagi xulosalar qilish mumkin: [10]

Sun'iy intellekt tizimi orqali huquqiy munosabatlarga kirib kelayotgan tushunchalarni mantiqiy ekspertizadan o'tkazish.

Dasturlash, fizika-matematika va biologiya sohalarida qo'llanilayotgan yangi tushunchalarning huquqiy munosabatlarga ta'siri va ularni qo'llash dialektikasini ishlab chiqish.

Huquqiy munosabatlarda qo'llanilayotgan tushunchalarni mantiqiy ekspertiza o'tkazish bugungi kunda talab darajasiga javob bermaydigan nomlarni iste'moldan chiqarish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sharipov M., Fayzixojayeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma. – T., 2005 (lotin grafikasida). – b. 71-79
2. Rahimov I., Mantiq. O'quv qo'llanma. – b. 49-85
3. Turg'unov, B. T. (2021). Mantiq asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Xudoyberganov, R. (2018). Huquqshunolar uchun mantiq. Toshkent: Adolat nashriyoti.
5. Ивлев Ю. В. Логико для юристов . – М.: Проспект, 2024. – с. 115-133
6. Крилов В.И., Старченко А.А., . – М.: Юрист, 2012. – с. 30-44
7. Audi, R. (Ed.). (2015). The Cambridge Dictionary of Philosophy (3rd ed.). Cambridge University Press
8. Copi, I. M., Cohen, C., & McMahon, K. (2016). Introduction to Logic (14th ed.). Routledge.
9. Hurley, P. J. (2014). A Concise Introduction to Logic (12th ed.). Cengage Learning.
10. Quine, W. V. O. (1982). Methods of Logic (4th ed.). Harvard University Press.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).